

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DISLALIYA BILAN ISHLASHDA LOGOPEDIK VA PEDAGOGIK USULLAR**

*G‘aniyeva Surayyo Abdumannob qizi  
Jizzax shahar 23-son DMTT logopedi*

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy buzilishni aniqlash, uning sabablari va bartaraf etishda logopedik va pedagogik usullar tahlil qilinadi. Ayniqsa, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida nutq rivojiga qaratilayotgan e’tibor, logopedik xizmatlarning ahamiyati va pedagogikusullari ko’rsatib o’tilgan. Bolalardagi nutqiy nuqsonlarni erta aniqlash, individual yondashuv va o‘yinli mashg‘ulotlarning dolzarbligini yoritilgan.

**Аннотация.** В статье анализируются выявление речевых нарушений у детей дошкольного возраста, их причины, а также логопедические и педагогические методы коррекции. Особое внимание уделяется значению развития речи в системе дошкольного образования, роли логопедических услуг и педагогических методов. Рассматривается актуальность раннего выявления речевых дефектов, индивидуального подхода и использования игровых занятий.

**Abstract.** The article analyzes the identification of speech disorders in preschool children, their causes, and the logopedic and pedagogical methods for their correction. Special attention is given to the importance of speech development in the preschool education system, the role of speech therapy services, and pedagogical approaches. The article also highlights the relevance of early detection of speech impairments, individualized approaches, and the use of play-based activities.


Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni nafaqat tarbiyalash balki, maktab ta’limini amalga oshirishga tayyor holda shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Umumiyligi o‘rtacha ta’limning Milliy o‘quv dasturida belgilangan talablarga javob beradigan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun maktabgacha ta’lim muassasalaridagi pedagogik va logopedik mashg‘ulotlar muhim hisoblanadi. Bola talaffuzining to‘g‘ri rivojlanishi, nutq tovushlarini bir-biridan aniq ajrata olishga o‘rgatish maktabgacha ta’lim va tarbiyaning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, bolalarda yuzaga keladigan nutq buzilishlari, xususan, dislaliya bilan samarali ishlash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Nutq - insonning muloqotdagi asosiy vositasi bo‘lib, bolaning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi davr nutqning shakllanishi va to‘g‘ri rivojlanishi uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning to‘liq va to‘g‘ri shakllanishi, ularning muloqot qobiliyatlarini

oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Biroq, nutq buzilishlari orasida eng ko‘p uchraydigan va pedagogik nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega bo‘lgan nuqsonlardan biri dislaliyadir.

4-5 yoshli bolalarning ko‘pchiligidagi tovushlar talaffuzi adabiy til normalariga yaqinlashgan boladi. Lekin ayrim bolalar tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Ular bir tovushni ikkinchi tovushdan farq qila olm aydilar, ayrim tovushlarni talaffuzda qollay olmaydilar, yoki nutqda boshqa tovushlatga alm ashtiradilar. Bu holatlar dislaliya termini bilan ataluvchi nutq buzilishining yuzaga kelishiga sabab boladi. Dislaliya nutq buzilishining bir turi bo‘lib, unda bolalar ma’lum tovushlarni noto‘g‘ri yoki umuman talaffuz qila olmaydi. Masalan, “r” tovushini “y”, “l” deb aytish, “s” tovushini “sh” sifatida talaffuz qilishi yoki almashtirish holatlari, “s”, “z”, “j”, “sh” tovushlarining noto‘g‘ri talaffuz qilinishi yoki tushib qolishi dislaliyaning ko‘p uchraydigan shakllaridandir. Bu holat bolalarning nutqini tushunishni qiyinlashtirib, ularning ijtimoiy-muloqot jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.


Dislaliyaga sabab bo‘luvchi bir nechta omillar bo‘lishi mumkin:



Maktabgacha yoshda nutq buzilishlarini erta aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyatga ega, chunki bu yoshda bolaning nutq rivojlanishi juda faol kechadi va uni to‘g‘ri yo‘naltirish kelajakda muktabda muvaffaqiyatli o‘qish va rivojlanishga zamin

yaratadi. Dislaliyani aniqlash uchun logopedlar maxsus test va kuzatuv usullaridan foydalanadilar. Bolaning nutqidagi muayyan tovushlarni talaffuzi, nutq ritmi, tovushlarni o‘rnini almashtirish yoki chiqarib tashlash holatlari o‘rganiladi. Diagnostika jarayonida ota-onha va pedagoglarning kuzatuvlari ham katta ahamiyatga ega.

Dislaliyani bartaraf etishda logopedik usullar muhim o‘rin tutadi. Bu usullar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:



**Artikulyatsion mashqlar:** nutq organlarini, ayniqsa til, lab va jag‘ni to‘g‘ri harakatlantirishga o‘rgatish

**Tovushlarni o’rgatish:** noto‘g‘ri aytilayotgan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish bo‘yicha maxsus mashqlar.

**Mushaklarni rivojlantirish:** nutq mushaklarining harakatini yaxshilash uchun gimnastika.


**O‘yinli mashqlar:** bolaning qiziqishini oshirish va mashqlarni yanada samarali qilish uchun o‘yin shaklida mashg‘ulotlar.

**Kundalik hayotda qo‘llash:** bolaning to‘g‘ri talaffuz qilingan tovushlarni kundalik nutqida qo‘llashini rag‘batlantirish va bu ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun faol yordam berish.

**Nutqni eshitishni yaxshilash:** to‘g‘ri talaffuz qilingan tovushlarni tinglash va takrorlash mashqlari.

Logopedik mashqlar bilan bir qatorda pedagogik yondashuvlar ham dislaliyani bartaraf etishda samarali hisoblanadi:

## Dislaliyani bartaraf etishda pedagogik yondashuv



**Individual yondashuv:** har bir bolaning nutq xususiyatlarini hisobga olib, shaxsiy reja asosida ishslash.

**Ijtimoiy muhitni yaxshilash:** ota-onalarga bilan hamkorligi rivojlantirishda o‘yinlarning roli katta, ular bolani motivatsiyalash va nutq mashqlarini qiziqarli qilishga yordam beradi.

**O‘yin va interaktiv metodlar:** nutqni rivojlantirishda o‘yinlarning roli katta, ular bolani motivatsiyalash va nutq mashqlarini qiziqarli qilishga yordam beradi.

**Nutqni rag‘batlantirish:** bolaning nutqini rag‘batlantirish uchun ijobjiy baholar berish va rag‘batlantirish usullarini qo‘llash.

**Ota-onalarga bilan hamkorlik:** nutq rivojlanishini uyda davom ettirish uchun ota-onalarga ko‘rsatmalar berish.

Dislaliyaning oldini olishda pedagogik va oilaviy yondashuvlar birgalikda ishlaydi. Bolaga yoshidan nutqni to‘g‘ri o‘rgatish, unga to‘g‘ri nutq muhitini yaratish, va erta bosqichda nutqdagi kamchiliklarni aniqlash zarur. Maktabgacha ta’lim muassasalari va oilaning hamkorligi bolaning nutqini to‘g‘ri rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Dislaliya bilan ishslashda erta diagnostika, individual yondashuv, o‘yin va interaktiv mashqlar orqali nutqni rivojlantirish samaradorligi oshmoqda. Shuningdek, ota-onalarga bilan hamkorligi nutq buzilishlarini bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi. Ularning birgalikdagi sa‘y-harakatlari bolaning nutqini to‘g‘ri rivojlantirishga xizmat qiladi va ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda dislaliya bilan ishslash bugungi kunda nafaqat individual rivojlanish, balki butun jamiyatning madaniy va ijtimoiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bu sohada izlanishlar olib borish, zamonaviy metodlarni joriy etish va pedagogik jamoani malakasini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda dislaliya nutqdagi artikulyatsion buzilish bo‘lib, uning erta aniqlanishi va samarali davosi bolaning kelajakdagi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Dislaliyaning oldini olish va bartaraf etishda logopedik va pedagogik usullar birgalikda qo‘llanilishi zarur. Ushbu usullar bolaning nutq organlarini to‘g‘ri ishslashga o‘rgatish, nutqni to‘g‘ri shakllantirish, va nutq muhitini yaxshilash orqali samarali natijalarga erishadi. Shu bilan birga, ota-onalarga bilan hamkorligi bolani qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedova, M.M. **Logopediya asoslari.** - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2021.
2. Raxmonova, Z.T. **Maktabgacha ta’limda nutqni rivojlantirish.** - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
3. Saidova, D.K. **Nutq buzilishlari va ularni bartaraf etish metodikasi.** - Toshkent: 2022.
4. Yusupova, G.N. **Bolalar psixologiyasi va nutq rivoji.** - Toshkent: “Ilm ziyo”, 2019.
5. Ayupova M.Y. Logopediya, darslik – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2007. - 560 b.